

MAKTAB TA'LIM TIZMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING YUTUQLARI

Scientific supervisor :Saliyeva .Ziroat Zokirovna

Murodqobilova Munisa G`ayratovna

*Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va adabiyoti 2-
kurs, 2306-guruh*

[*murodqobilovamunisa@gmail.com*](mailto:murodqobilovamunisa@gmail.com)

[***https://doi.org/10.5281/zenodo.14391029***](https://doi.org/10.5281/zenodo.14391029)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda barcha sohalar kabi ta`lim sohasida ham kompyuter texnologiyalari keng kirib keldi va bu ta`lim -tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda va har tomonlama intellektual salohiyatini oshirishda muhim o`ringa ega.Bugungi kunda hayotni axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin.

Kalit So`zlar: Axborot texnologiyalari, maktab ta`lim tizmi, ta`lim sifati innovatsion texnologiyalar, ma`lumotlar o`qituvchi o`quvchilar axborot kommunikatsiya, milliy dastur dars jarayoni.

KIRISH.

Davlat va jamiyatning taraqqiyoti, kelajagining qanday bo`lishi avvalo maktabdagi sifatli ta`limga bog`liq.Yoshlarning kelgusida erishiladigan muvaffaqiyatlarning asosini ulardagi qiziqish va harakatdan oldin ilm tashkil etadi.Maktablar jamiyatga bo`lg`usi professorlar, olimlarni tayyorlashda eng muhim o`ringa ega. Bundan tashqari insonning dunyoqarashini shakllantirishda hayotga moslashishi,jamiyatga kerakli shaxs bo`lib yetishishida maktabning o`rni beqiyos.

XXI asr axborot texnologiyalar davri bo`lganligi uchun biz hozirda hayotni texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin.Texnologiyalar har bir sohaga kirib borgan.Shu jumladan ta`lim sohasining ham bir qismi bo`lib bormoqda.Maktab ta`lim tizmida axborot texnologiyalardan foydalanish hozirgi davrning muhim talablaridan biri sanaladi.Negaki, o`qituvchilar dars jarayonida eng so`ngi texnologiyalardan foydalanib dars o`tsalar o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishi yanada ortadi.O`quvchilarda ham ko`rish hameshitish orqali olingan bilimlari ularning xotirasida mustahkam saqlanadi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2023-yil 26-maydagi PF 79-sonli Farmoni tahririda Maktab ta`limini rivojlantirish bo`yicha Milliy dasturni tasdiqlash to`g`risidagi qarorida 1.2022-2026-yillarda maktab ta`limini rivojlantirish bo`yicha milliy dastur ,maktab ta`limiga ilg`or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy dasturlar hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish 1-bandida ,umumiy o`rta ta`limda barcha ma`lumot almashinuvi jarayonlarini maktabga va maktab tizmida boshqarishning yagona dasturiy majmuasi orqali oshirilishini hamda ushbu sohada electron davlat xizmatlarini ko`lamini kengayti

zamonaviy modellar bo'yicha maktablarni qurish mukammal ta'mirlash va jihozlash haqida 2-bandida keltirib o'tilgan.[1,1]

Bugungi kunda respublikamizda maktab ta'lim tizimini komputer, multimediali elektron qo'llanmalar, Internet, elektron ma'lumotlar bazasi va shu kabi yangi axborot texnologiyalari asosida tashkil etish hamda mashg'ulot va boshqarish jarayonida ulardan keng foydalanishga oid bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Maktab ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar quyidagi talablarga mos kelishi lozim:

➤ dars jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;

➤ axborot texnologiyalari asosida o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olgan holda ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun kerakli imkoniyatlarni yaratish;

➤ axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'quvchini har tomonlama rivojlanishini motivatsiyalash va faollashtirish;

➤ axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlari mantiqiyli va emotsionalligini oshirish.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim tizimining samaradorligi quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

Tatbiq etilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining sifati;

Axborot texnologiyalarining tarkibiy qismi hisoblangan zamonaviy ma'lumotlar.[2,98]

Ta'lim muassasalarida komputerli o'yin dasturlaridan foydalanish o'quvchilarda bir qancha pedagogik-psixologik funksiyalarni amalga oshiradi va shakllantiradi:

mustaqil harakat qilish imkonini beradi; obrazli tasavvurlash va fikrlash rivojlanadi; ranglarni ajrata olish imkoniyatini yaratadi; bilim olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi; o'z qobiliyati va iqtidorini namoyish qilish imkonini beradi; muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi; insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishni o'rgatadi; o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantiradi; hamkorlik qilish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi; charchoq va quvvatsizlikni bartaraf etadi; nutq madaniyati va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi; harakatchanlik qobiliyati oshadi [3,98]

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlashadi. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. Mikroguruhlarning har bir a'zosi topshiriqni bajarishda o'z hissasini qo'shishga

harakat qiladi. Bu holat o'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.[4,1151]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda , axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish asosida boshlang'ich sinf ta'lim tizimi samaradorligini oshirish uchun elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish, takomillashtirish va ta'lim jarayoniga joriy etish maqsadida komputerli nashrlar, virtual laboratoriya, ijodiy ishlanmalar, virtual sayohatlar va multimediali dasturlar yaratilmoqdaki, ular multimediali va internet o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi. Ta'limda zamonaviy axborot hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash qiziquvchanlik, odob-ahloq, ijodkorlik, muloqot va estetik qobiliyatlarni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2024-y., 07/24/231/0445-son).
<http://lex.uz/docs/-5239538>
2. https://www.researchgate.net/publication/370538206_Umumiy_o'rta_ta'lim_maktablarida_axborot_tehnologiyalaridan_foydalanishning_samaradorligi
3. Abdiyev Sh. Ta'lim sifat samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni. Uslubiy ko'rsatma. - VXTXQTMOI, Samarqand, 2015 -yil.
4. G'ulomov S. Axborot tizimlari va texnologiyalari -T.: "Shark", 2000 -y